

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning nutqini shakllantirishda 4K-modeli.

**Namangan viloyati pedagogikmahorat markazi maktabgacha, boshlang'ich
va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi**

Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ravon nutqi va uni shakllantirish vazifalari va mazmun mohiyati, bolalarning ravon gapishga, til tafakkur quroli masalasining nazariy amaliy ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ravon nutq, 4K-modeli, dialog, muloqot, muomala, individuallaro, ichkiindividual, umuminsoni, akustik va artikulyatsion jihat, imitatsiya metodi.

Аннотация: Развитие беглой речи детей в дошкольных образовательных организациях, задачи и сущность ее формирования, теоретическое и практическое значение проблемы беглой речи детей, язык как орудие мышления.

Ключевые слова: диалог, навыки 4К, общение, взаимодействие, межличностное, внутри индивидуальное, универсальное, акустико-артикуляционный аспект, метод имитации.

Abstract: The topic of the course is the development of children's fluent speech in preschool educational organizations, the tasks and essence of its formation, the theoretical and practical significance of the issue of children's fluent speech, language as a tool of thinking.

Keywords: speech, dialogue, communication, interaction, interpersonal, intra-individual, universal, acoustic and articulatory aspect, imitation method.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifasi – bolalarda ravon so'zlashuv nutqni (dialogik nutq) va monologik nutqni rivojlantirishdan iborat. So'zlashuv nutqini shakllantirish vazifasi ko'p qirrali. Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarda ularga qaratilgan nutqni tinglash va tushunish, bir-birini tinglash, savollarga javob berish va o'zi ham savollar berishi, suhbat mavzusi bo'yicha izchil javob berish qobiliyati shakllanadi. 4 yoshdan boshlab bolalarga suhbatda ishtirok etishni, uzuq-yuluq fikrlardan

nisbatan keng, izchil fikrlarga o'tish, savollar berishni o'rgatish zarur; 5 - 6 yoshli bolalar uzoq davom etadigan maqsadli suhbatlarga qodir bo'ladilar. Bolalarga qo'yilgan savollarga ularning mazmunidan kelib chiqqan holda qisqa yoki keng qilib aniq javob berish, suhbatdoshi so'zini bo'lmasdan diqqat bilan tinglash, ularning javoblarini to'ldirish, tuzatishlar kiritish, o'zlari ham savollar berishni o'rgatish zarur va h.k. Ayni paytda shaxsning nutqiy sifatlarini tarbiyalash – bolalarga kirishimlilik, xushmuomalalik, hushyorlik, bosiqlik kabi sifatlarni shakllantirish; suhbat jarayonida nutqiy muloqot madaniyati ko'nikmalarini, tengdoshlar jamoasi oldida chiqish qila olish qobiliyati va telefon orqali suhbatlashish madaniyatini tarbiyalash lozim. Monologik nutqning o'quv vazifasi mustaqilligi, tugallanganligi, qismlari o'rtasida mantiqiy aloqasining mavjudligi bilan tavsiflanadigan ravon fikr bildirishni o'rgatishdan iboratdir, ya'ni bu – qisman (nutqiy) ko'nikmalar va ona tilida fikr bildirish uchun zarur bo'lgan murakkab qobiliyatlarni shakllantirish demakdir. Ravon nutq ustidagi ishlarning asosiy rivojlantiruvchi vazifasi – bolalarning fikrlashini, o'z fikrini til vositalari yordamida aniq ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, nutqiy fikrlashga oid vazifalarni mustaqil ijodiy hal etish ko'nikmalarini shakllantirish, xotirani, tasavvurni faollashtirishdan iborat. Vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun pedagog o'ziga quyidagilarni aniq tasavvur qilish zarur:

- 1 – ravon nutqni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan til materiali;
- 2 – ushbu materialda shakllantirish mumkin bo'lgan nutqiy ko'nikmalar va mahoratlar umumiyli;
- 3 – ushbu ko'nikmalarni —oddiydan murakkabga tamoyili asosida mashq qilishning ketma-ketligi.

Monologik nutq hikoya qilishni o'rgatish jarayonida shakllanadi – bolalar og'zaki monologik nutqning ikki toifasini – qayta hikoya qilish va hikoya qilish, tavsiflovchi hikoyalar, bayon qiluvchi hikoyalar, isbotlovchi hikoyalarni o'zlashtirib oladilar. Yuqorida qayd etilganidek, ravon nutqning ikki turi mavjud: dialogik (dialog) va monologik (monolog) nutq.

Dialog – ikki yoki bir necha kishining o‘zaro suhbat. Suhbat maqsadi odatda biron narsa haqida so‘rash va javob olish, biron - bir harakatga undashdan iborat. Monolog – bir shaxsning ravon nutqi.

Monologning maqsadi – biron-bir fakt haqida xabar berishdir. Dialog o‘z uslubiga ko‘ra asosan, og‘zaki nutq, monolog esa odatda, kitobiy uslubdagi nutq hisoblanadi. Dialogik ravon nutqda ko‘pincha noto‘liq gaplardan foydalaniladi, tushirib qoldirilgan gap a‘zolarini so‘zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib tushunib oladi, va og‘zaki uslubdagi, standart tuzilishdagi (qolip) to‘liq gaplardan ko‘proq foydalaniladi: — u kelmay qo‘ya olmaydil – ya’ni u albatta keladi.

Bunday tuzilishdagi gaplar monologik nutqda qo‘llanilmaydi. Bolalar dialogik nutqni har kuni maishiy hayotda uchratishlari sababli uni ancha oson o‘zlashtirib oladilar. Biron-bir narsani tavsiflashda, biron narsa haqida bayon qilishda yoki mulohaza yuritishda nutqning monologik shaklidan foydalaniladi. Nutqning ushbu ikki turlari o‘rtasidagi farq matn ichidagi gapning mantiqiy aloqa turi bilan belgilanadi. Monolog doimo vaqtli yoki sabab-oqibatli aloqada bo‘ladigan (bir-biriga nisbatan) borliq faktlari haqida xabar qiladi. Vaqtinchalik aloqa ikki tomonlama bo‘lishi mumkin: faktlar haqiqatdan ham bir vaqtdalik yoki ketma - ketlik munosabatlarida bo‘lishi mumkin. Bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘ladigan faktlar haqidagi xabarlar tavsif deb ataladi. Faktlar ketma - ket keladigan xabar bayon qilish deyiladi. Sabab - oqibatli munosabatlarda bo‘lgan faktlar haqidagi xabarlar esa mulohaza deb yuritiladi. Bolalar monologik nutqni tushunib yetishlari va o‘z xabarlarini uzatish maqsadida uni o‘zlashtirib olishlari uchun ular tegishli sintaktik tuzilmani o‘zlashtirib olishlari lozim. Hamonki, bola oddiy keng tarqalgan gaplarni tuzishni o‘rganib ololmas ekan, uning nutqi ravon bo‘lishi mumkin. Oqibatda – monologik nutqning turli toifalarini o‘qitish – bu eng avvalo grammatika – sintaksisga o‘qitishdir. Bolalarga monologik nutqni o‘qitish qiyin, chunki bolalar kundalik hayotda va kattalar nutqida ham monologik nutqni kamdan-kam hollarda eshitadilar: bolalar bilan so‘zlashganda kattalar ko‘pincha dialog shaklidan foydalanadilar. Monologik nutqning dastlabki ko‘nikmalarini maktabgacha bo‘lgan davrda rivojlantirish lozim, chunki maktabda monologni o‘qitishni boshlash uchun kech bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogi bolalarga monolog-tavsif, bayon

qilish, mulohaza yuritishni o'rgatish uchun maqbul didaktik material topishga harakat qilishi zarur. Ilk yoshda bola ravon nutqni eshitadi. Dastlab bu unga nisbatan aytilgan luqmalar, so'ngra esa ertaklar, hikoyalar, kattalarning monologik nutqlari bo'ladi. Ravon nutqdan til elementlari – tovushlar, morfemalar, so'zlar, gaplarni ajratib olar ekan, bola ravon matnda har bir til elementining o'rnini eslab qoladi, bu esa ilk yoshdan boshlab nutqdan oldingi mashqlar boshlanadigan til sezgilarini rivojlantirish jarayonini tashkil etadi.

Bugun ta'lim-tarbiya jarayonida ko'pchiligimiz "kollaboratsiya", "kritika", "kommunikatsiya" yoki "kreativlik" kabi innovatsion so'zlarni tez-tez eshitib turishimiz tabiiy holga aylanmoqda.

"Kollaboratsiya" (kollaboration) – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko'proq kishining sherikchiligi – deb tushunilsa, Ba'zi manbalarda esa "Kollaboratsiya"- (hamkorlik) - ikki yoki undan ortiq shaxs yoki guruhning har qanday sohadagi umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi faoliyat jarayoni hisoblanib, unda bilim almashish, o'qitish va kelishuvga erishish (konsensus)[1] mavjudligi bilan ta'riflandi

"Kommunikatsiya" - pedagogik xususiyatning asosiy xususiyatlaridan biri sanalib, bu xususiyat o'qituvchi va o'quvchi, ota- onalar, mahalla faollari va maktab jamoasi ya'ni hamkasblari bilan munosabatlarni keng yoritadi. Hozirgi kunda o'qituvchilarni pedagogic qobiliyatlarini rivojlantirishda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlardan maqsad shuki, bo'lajak peadagoglarni bilimli, o'z kasbiga fidoiy qilib tarbiyalash hamda tarbiyanuvchilarni barkamol shaxs sifatida rivojlantirishdir.

"Kreativlik" - tajribalar asosida yangi nazariyalar yaratish. Zamon bilan hamnafas bo'lgan holda o'z g'oyalariga tayangan holda yangi metod va yondashuvlar yaratishdir. Pedagogik qobiliyatlar funktsiyaiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Umumiy (aqliy faoliyat, tanqidiylik, tizimiylik, tahlil qilish, reaksiya tezligi, sintezlash, diqqatni jamlash, e'tiborlilik);
2. Maxsus (tashkilotchilik, injener-texnik, loyihalashtirish, matematik, ijodiy, badiiy, musiqaviy).

Talant - bu biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi. Olimlarning fikricha pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari quyidagilar:

1. O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni sevish;
2. Mutaxassislik fanini chuqur bilish, qiziqish;
3. Pedagogik takt(odob va go'zallik)ka ega bo'lish;
4. Bolalar jamoasiga singib ketish;
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish;
6. Javobgarlikni his etish;
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallash.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Tarbiyalanuvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Jamoa bo'lib hamkorlikda ishlaganda tanqidiy fikrlash orqali tarbiyalanuvchilar ijtimoiy muloqotga kirisha oladilar. U quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi: tahlil - muhokama qilinadigan savol va dalillar o'rtasida mantiqiy bog'liqlikni o'rnatish; baholash - dalillarning ishonchliligi va aniqligini baholash qobiliyati; tushuntirish – o'z nuqtai nazarini asoslash; faraz qilish – ma'lumotlarning yetishmasligini aniqlash va shu asosda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati; tartibga solish – o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni chiqarish va mulohaza yuritish qobiliyati shakllanadi.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda

katta natijalarga erishishyapti. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida XXI-asr ko'nikmalari shakllantirib borilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ayni vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya olayotgan bolalarning barchasining dunyoqarashi, bugungi kun tadqiqotchisining o'z ma'naviy olami, kuchli irodaviy xususiyatlari biz ilg'agandanda yuqori pog'onada. Bugungi kun tarbiyalanuvchisiga nima qilishni emas, qanday bajarishni o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Bizga ma'lumki, har bir bola o'z intellektual imkoniyati darajasida fikr yuritadi, rivojlanadi. Eng muhimi bolalarning har birini savol yoki topshiriq bilan bezovta qilib turish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent, 2006.
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998.
- 3.*Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax, 2007.
- 4.Zunnunov A. Sulaymonov A., Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash omillari. –T..2004.
5. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94.
6. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.